

**“SAVODI TA’LIM” RISOLASI –XATTOTLIK SAN’ATI
NAMUNASI SIFATIDA**

*Abdurashidova Sevinch Alisher qizi,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Tarix va filologiya” fakulteti 2- bosqich talabasi
E-mail: abdurashidovasevinch227@gmail.com
Ilmiy rahbar: Abdulkayrov Manzar Husanovich*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xattotlik san’atining yuzaga kelishi, Munis Xorazmiy ijodiyotida ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalari, uning “Savodi ta’lim” asarining didaktik xususiyatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Munis Xorazmiy, Savodi ta’lim, xattotlik, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, maktab, odob-axloq.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается зарождение искусства каллиграфии, вопросы образования и нравственности в творчестве Муниса Хорезми, а также дидактические особенности его произведения “Обучение грамоте”.

Ключевые слова: Мунис Хорезм, Обучение грамоте, каллиграфия, наука, образование, школа, манеры.

ANNOTATSIYA

This article describes the emergence of the art of calligraphy, the issues of education and morals in Munis Khorezmi's work, and the didactic features of his work “Literacy Education”.

Key words: Munis Khorezmi, Literacy, calligraphy, science, education, school, manners.

Xattotlik arabchadan olingan bo‘lib, husnixat yozuvchi, kalligrafiya – yozuv xat san’ati, kitob ko‘chirish hamda me’moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitoblarini yaratish kasbi. Ilk yozuvning paydo bo‘lishi natijasida yuzaga kelgan.

Xattotlik san’ati Sharq mamlakatlarida o‘ziga xos alohida yo‘nalish kasb etgan, maxsus ixtisos darajasiga ko‘tarilgan qadimiy va beba ho san’atdir. Bu davrlarda yozuv va kitob ko‘chirishga e’tiborning ortishi tufayli ajdodlarimiz tasarrufida bo‘lgan o‘lkada “Buxoro xattotlik maktabi”, “Xorazm xattotlik maktabi”, “Farg‘ona (Qo‘qon) xattotlik maktabi”, “Samarqand xattotlik maktabi”, “Toshkent xattotlik maktabi” kabi bir necha yirik san’at markazlari vujudga keldi.¹

¹ Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. – T., 1971.

Xattotlik san'ati Markaziy Osiyoda, Temuriylar davrida taraqqiy etdi. Dastlab Movounnahr poytaxti Hirotda rivoj topdi. Shu tariqa xattotlik maktablari ham qad ko'tardi. Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan bo'lmish Xorazmda xattotlik san'ati XVIII asr boshlaridangina mustaqil maktab sifatida shakllandi. Ayniqsa, XIX asrda Muhammad Rahim I (1806–1825) va Muhammad Rahim II (1844–1910) zamonida Xorazmda xattotlik san'ati keng taraqqiy etib, kitobat ishlari ham rivojlandi.

Husnixat san'atining asosiy mezonini tashkil etadi. Xattoki, Ibn Sino bobomiz ham o'zining “Tib qonuni” kitobida aytishicha, husnixat bilan yozilgan barcha matnlar, asarlar va qo'lyozmalar qadrlangan va tabarruk hisoblangan. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, xunuk xat bilan yozilgan matnlar, kishining ko'ziga zarar keltiradi deydi.

Amir Avazbiy o'g'li Shermuhammad, adabiy taxallusi Munis Xorazmiy XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlarida Xorazmda yashab ijod qilgan buyuk shoir, olim, tarixnavis, tarjimon va xattotlardan biridir. Munis Xorazmiy o'zbek adabiyoti, umuman madaniyati tarixida salmoqli o'rinni egallaydi. U muarrix sifatida o'zining “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asarini yozdi, shoir sifatida devon tuzdi. Tarjimon sifatida tarixiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi, pedagog sifatida “Savodi ta'lim” nomli risola yozdi. Munis o'z davrining yetuk murabbiy shoiri sifatida bolalarning savodxonligini va husnixatini yaxshilash yo'lida ko'p izlanadi va yoshlarga husnixatdan ta'lim berib, “bilgancha surib qalamni har yon, ta'lim ishin aylar erdi oson” deydi. “Bilimning eshigi alifbe” deganlaridek, Munis ham ta'limdagi muvaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushungan va shuning uchun “umumiy arqom” yozuv ilmini yaratishga bel bog'lagan.²

Xorazmiyning iste'dodli qirralaridan biri bu xattotlik hisoblanadi. U bu yo'nalishni san'at darajasiga ko'tara oldi. Munisning “Savodi ta'lim” asari 1804- yil 6-dekabrda vujudga keladi. Hijriy 1219-yil, ramazon oyining uchinchisi chorshanba kuni yozib tugatgan. Asarni nima uchun yozganligini va tarixini asarining ichida aytib o'tgan. Mazkur risola nazariy ma'lumotlar va mashqlarni o'z ichiga olgan. Risola ikki qismidan tarkib topgandir. U “Savodi ta'lim”ning nazariy qismida o'zigacha mavjud bo'lgan bolalarga xat-savod o'rgatuvchi risolalarning barcha nuqson va kamchiliklarni ochib tashlaydi va eski risola bilan o'zi yaratayotgan risolani bir-biri bilan taqqoslab, eski risolaning o'sha kungi talablarga javob bera olmasligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi. Risolaning ikkinchi qismida arab alifbosidagi har bir harfning yozilish uslubini ma'rifiy-didaktik nuqtai nazardan sodda qilib tushuntirishga harakat qiladi.

Asarning hajmi jami bo'lib 352 misradan iborat. Uni shartli ravishda 3 qismga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Muqaddima qismi. U 18 ta kichik boblardan iborat bo'lib, hamd, na't, risola nazmining sabablari, qalam ta'rifi, xat ta'rifi kabi masalalar yoritilgan.

² Izabullayeva .G. Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-qism. Darslik.

2. Asosiy qism. U 22 ta kichik boblardan iborat. Ularda arab harflarining yozilish yo‘llari, usullari va mahoratiga e’tibor qaratilgan.

3. Xotima qismi. Bunda risola tarixi bitiladi.

Munis Xorazmiy yetuk murabbiy sifatida o‘z o‘quvchilariga savod o‘rgatayotganda, har tomonlama sodda va ravon yo‘llarini o‘ylagan. Uning asosiy maqsadi oson va qulay savodxonlikka erishish edi. Maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun ham “Savodi ta’lim” risolasini vujudga keltirdi:

*Bilgancha surub qalamni har yon,
Ta ’lim ishin aylar edim oson.
Lekin ko ‘ngul ichra erdi bu kom,
Qilsam raqame ulumi arqom.*

Haqiqatdan ham, risola muallifi arab harflarining murakkab shakllarini oson uslubda o‘rganish yo‘riqnomasini yaratdi. U harflarning esda saqlanishini osonlashtiruvchi ashyolarni topadi. Ularni turli jonzotlarga, jihozlarga o‘xshatib o‘quvchilar tasavvurini tiniqlashtiradi.

Munis savodxonlikda o‘z usullarini ishlab chiqib, xatto ustozlar fikriga munosabat bildiradi, ular bilan bahs-munozaralar o‘tkazadi.

*“To”(ຫ) zikrida dedi ba ’zi ustod,
Zebo alifyu avvali “Sod”(ص).
Bu nuqtag ‘a man qilurman inkor,
“Sod”ostи erur satrbar bisyor.*

Muallif ushbu misrada “To” – harfining yozilish shaklini tushuntirar ekan, uni otga minib ketayotgan kishiga o‘xshatadi. Bu qiyos harfning o‘rganuvchi xotirasida mustahkam o‘rganishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarixda yashab ijod qilgan buyuk ulamolarimizning hayoti va ijodini o‘rganish har birimizning burchimizdir. Ular yaratgan adabiy meroslarni asrab avaylashimiz, qadrlashimiz va ularning ishlarini davom ettirishimiz har bir yoshlar qo‘lidadir. Demak, buyuk xattot, shoir, tarjimon va tarixnavis olim Munis Xorazmiy turli mavzularda ijod qilgan. U asosan oshiqona, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy – ta’limiy va xasbi hol yo‘nalishlarida qalam tebratdi. Munis savod o‘rganishni soddalashtirish va takomillashtirish maqsadida “Savodi ta’lim” risolasini yaratdi. Risola she’riy yo‘lda masnaviy usulda yozilgan ilmiy asardir. U aruzning xazaji musaddasi axrabi maqbazi maxzuf vaznida yaratilgan (mafulu, mafoilun, faulun). Risolada Munisga xos shoirona mahorat borligini ko‘rishimiz mumkin. Misralardagi fikr mukammalligi bilan birga so‘zlarning ishlatilish o‘rni va meyyori, ohangdorligi, qofiya va radiflarning o‘ziga xos yangiligi va mukammalligi o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi. Tasvirdagi obrazlilik zavq bag‘ishlaydi. Ushbu risolani ham ilmiy, ham badiiy nuqtayi nazardan o‘rganish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova I O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi/O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan: 2009. 202-220 –b.
2. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent, 1978. 387-b.
3. Shermuhammad Munis. Savodi ta’lim. – Toshkent, 1997.
4. Murodov A., O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. – Toshkent, 1971.
5. Izabullayeva .G. Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-qism. Darslik.